



FARG‘ONA VILOYATI FARG‘ONA TUMANI HOKIMINING FARMOYISHI

2025-yil 8-avgust

123-11-163-F/25

Farg‘ona tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 28,73-moddalariga asosan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 31 martdagi “Xotin-qizlar muammolarini o‘rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 145-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 31 martdagi 145-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida tumandagi “Ayollar daftari”ga kiritilgan ehtiyojmand xotin-qizlar muammolarini moliyalashtirish bilan bog‘liq xarajatlar uchun “Ayollar daftari” jamg‘armasiga 110 957,0 (bir yuz o‘n to‘qqiz yuz ellik yetti) ming so‘m miqdorida mablag‘ tuman mahalliy budjeti daromadlari rejasining 2025 yil 2-chorakdagi orttirib bajarilgan qismi hisobidan tuman hokimligiga ajratilsin.

2. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Yusupov)ga, ajratilgan mablag‘ bo‘yicha tuzilgan tuman hokimligining xarajatlar smetasini belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazish, tuman g‘aznachilik bo‘linmasi (A.Nishonov)ga to‘lovlarni o‘rnatilgan tartibda va o‘z vaqtida amalga oshirish vazifalari topshirilsin.

3. Tuman hokimligi bosh hisobchisi (SH.Jamolova)ga, ajratilgan mablag‘ni maqsadli va samarali foydalanilishini ta‘minlash vazifasi yuklatilsin.

4. Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budget, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi mazkur farmoyish bilan ajratilgan mablag‘ haqidagi hisobotni navbatdagi sessiya muhokamasiga kiritilishini nazoratga olsin.

5. Ushbu farmoyishning bajarilishini nazorat qilish vazifasi tuman hokimining birinchi o‘rinbosari O.Abduraximov zimmasiga yuklatilsin.

Farg‘ona tuman hokimi



Inomov X.T